

SANOAT KORXONALARIDA TEXNIK TARTIBGA SOLISH TIZIMIDA SIFAT MENEJMENTIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Raximov Ilyos Muydinovich

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi bosh mutaxassisi

E-mail: ilyos.ilyos1985@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda sanoat korxonalarida texnik tartibga solish tizimi va sifat menejmentining o‘zaro integratsiyalashuvi holati tahlil qilinib, ularni yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy yo‘nalishlar belgilab berildi. ISO 9001:2015 standarti asosida joriy etilgan sifat tizimining samaradorligi, standartlarning xalqaro talablar bilan uyg‘unlashuvi hamda ularning yillik dinamikasi statistik va huquqiy tahlil asosida baholandi.

Natijalar O‘zbekistonda ushbu sohada barqaror institutsional va huquqiy asoslar shakllanganini, xalqaro integratsiyaga yo‘naltirilgan ijobiy siljishlar mavjudligini ko‘rsatdi. Xalqaro tajribalar (KATS, TSE, Rosstandart) bilan qiyosiy tahlil orqali milliy tizimning ustuvor yo‘nalishlari va rivojlanish ehtiyojlari aniqlab olindi.

Tadqiqot yakunida ichki auditni kuchaytirish, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda sifat tizimiga o‘tgan korxonalarni rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi. Ushbu ish texnik siyosatni modernizatsiya qilish va O‘zbekiston sanoatining xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: texnik tartibga solish, sifat menejmenti, ISO 9001:2015, milliy standartlar, xalqaro tajriba, ichki audit, raqamlashtirish, sanoat siyosati, muvofiqlik baholash, raqobatbardoshlik

Аннотация

В настоящем исследовании проведён анализ состояния интеграции системы технического регулирования и управления качеством на промышленных предприятиях, а также определены практические направления их дальнейшего совершенствования. Эффективность внедрения системы качества на основе стандарта ISO 9001:2015, соответствие стандартов международным требованиям и их годовая динамика были оценены с использованием статистического и нормативного анализа.

Результаты показали, что в Узбекистане сформированы устойчивые институциональные и правовые основы, наблюдаются положительные сдвиги, ориентированные на международную интеграцию. Сравнительный анализ с международным опытом (KATS, TSE, Росстандарт) позволил выявить приоритетные направления и потребности в развитии национальной системы.

В результате исследования разработаны практические предложения по усилению внутреннего аудита, внедрению цифровых систем мониторинга, повышению кадрового потенциала и стимулированию предприятий, внедривших системы качества. Данная работа служит важной научно-практической основой для модернизации технической политики и повышения международной конкурентоспособности промышленности Узбекистана.

Ключевые слова: техническое регулирование, управление качеством, ISO 9001:2015, национальные стандарты, международный опыт, внутренний аудит, цифровой мониторинг, промышленная политика, оценка соответствия, конкурентоспособность

Abstract

This study analyzes the integration of technical regulation systems and quality management in industrial enterprises and outlines practical directions for their improvement. The effectiveness of implementing a quality management system based on ISO 9001:2015, the alignment of standards with international requirements, and their annual dynamics were assessed through statistical and regulatory analysis.

Findings demonstrate that Uzbekistan has established stable institutional and legal frameworks, with positive shifts directed toward international integration. A comparative analysis with international practices (KATS, TSE, Rosstandart) revealed the priority directions and development needs of the national system.

As a result of the research, practical recommendations were developed to strengthen internal audit mechanisms, implement digital monitoring systems, enhance personnel capacity, and incentivize enterprises adopting quality systems. This work serves as an important scientific and practical foundation for modernizing technical policy and enhancing the international competitiveness of Uzbekistan's industry.

Keywords: technical regulation, quality management, ISO 9001:2015, national standards, international experience, internal audit, digital monitoring, industrial policy, conformity assessment, competitiveness

KIRISH

Bugungi raqobatbardosh iqtisodiy sharoitda sanoat korxonalarining muvaffaqiyati nafaqat mahsulot hajmiga, balki ularning sifati va xalqaro standartlarga muvofiqligiga ham bevosita bog'liqdir. Mahsulot xavfsizligi, sifat kafolati va uzluksiz takomillashuv bugungi kunning eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Aynan shu jarayonda texnik tartibga solish tizimi va sifat menejmenti o'zaro bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi asosiy mexanizmlar sifatida maydonga chiqmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi sanoat tarmoqlarida olib borilayotgan chuqur islohotlar, zamonaviy raqamli texnologiyalar joriy qilinishi, milliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro bozorga olib chiqishga qaratilgan keng ko‘lamli strategiyalar — bularning barchasi texnik jihatdan tartibga solish va sifat menejmenti tizimlarini modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Ayniqsa, ISO 9001:2015 kabi xalqaro sifat menejmenti tizimlarini joriy etish orqali korxonalarda jarayonlarni boshqarish madaniyati shakllanmoqda, risklar oldi olinmoqda va iste‘molchi ishonchi mustahkamlanmoqda.

Yurtimizda bu sohada ijobiy siljishlar kuzatilmoqda: standartlar soni ortmoqda, ularning xalqaro standartlarga moslik darajasi yildan-yilga oshib bormoqda, sertifikatlashtirish tizimi takomillashmoqda. Davlat tomonidan bu sohani qo‘llab-quvvatlash uchun qabul qilinayotgan qonunlar, farmon va qarorlar sifatni boshqarishning institutsional asoslarini mustahkamlab bormoqda. Ayniqsa, texnik tartibga solish agentligining tashkil etilishi va texnik hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish strategiyasi bu yo‘nalishdagi rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Shu bilan birga, hali hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar ham mavjud: xalqaro tajriba bilan solishtirganda milliy tizimning uyg‘unlik darajasi past, ichki audit va monitoring mexanizmlari yetarli darajada ishlamayapti, hamda sifat tizimini joriy qilgan korxonalar uchun amaliy rag‘bat mexanizmlari sust ishlamoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, u texnik tartibga solish va sifat menejmenti tizimining o‘zaro integratsiyasini chuqur tahlil qilish, amaldagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, zamonaviy yondashuvlarga asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida xalqaro tajribalar, normativ hujjatlar, statistik ko‘rsatkichlar hamda milliy amaliyotlar uyg‘un holda o‘rganiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning nazariy bazasi sifat menejmenti va texnik tartibga solishning asosiy konsepsiyalariga tayanadi. Xalilov S. tomonidan ishlab chiqilgan darslikda [1] ISO 9001 tizimining O‘zbekiston sharoitida qo‘llanishi, hujjatlashtirish, ichki audit va jarayonlarga asoslangan boshqaruv tamoyillari bayon etilgan. Bu yondashuvlar xalqaro mutaxassislar – Juran [2] va Ishikawa [3], [4] asarlarida chuqur tahlil qilingan bo‘lib, TQM (Total Quality Management) g‘oyalari bilan uyg‘unlashgan.

Tahlil ishlari uchun metodik asos sifatida ISO 9001:2015 va unga amaliy yordamchi sifatida ishlab chiqilgan ISO/TS 9002:2016 metodikasi [22], [30] xizmat qildi. Bular tashkilotlarda sifat menejmenti tizimini joriy qilishda hujjat aylanishi, audit jarayonlari va samaradorlik monitoringini yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

O‘zbekistonda texnik tartibga solish tizimining shakllanishi va takomillashuvi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2021-yil 2-iyun PF-6240-son “Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni[5], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyun PQ-5133-son “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori [6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-fevral PQ-91-son “O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori[8], shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-noyabr. O‘RQ-800-son “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni [10] va O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 27-fevral O‘RQ-819-son “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni[11] kabi qonun hujjatlari bilan huquqiy asoslangan. Bu hujjatlar agentliklar vakolatlarini, texnik reglamentlar ishlab chiqish tartibini va xalqaro standartlar bilan uyg‘unlik tamoyillarini belgilab berdi.

Davlat dasturlarining ijrosi [12], [27] va texnik nazorat inspeksiyalarining statistik hisobotlari [14], [15], [28] orqali tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari tahlil qilindi. Jumladan, texnik reglamentlar sonining yillik o‘sishi, bekor qilingan me‘yorlar, xalqaro standartlarga moslashtirilgan hujjatlar, sertifikatlash faoliyatining ko‘lamiga doir ma’lumotlar to‘plandi.

Tadqiqotda xalqaro tajriba bilan solishtirma yondashuv muhim ahamiyat kasb etdi. Janubiy Koreya (KATS), Turkiya (TSE) va Rossiya (Rosstandart) tizimlarining institutsional modeli, xalqaro tashkilotlar bilan aloqalari va muvofiqlik baholash mexanizmlari [36] O‘zbekiston tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Bu orqali milliy tizimning raqobatbardoshligi va rivojlanish istiqbollari baholandi.

Metodik yondashuvni boyitishda Erasmus+ doirasida ishlab chiqilgan kurs materiallari [13], TSUE o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari [18] hamda texnik reglamentlar va ekspert komissiyalarga oid hujjatlar [20], [21] amaliy ko‘mak vazifasini bajardi.

Yakunda, xalqaro tajribada sifat menejmenti tizimlarini joriy etgan korxonalariga berilayotgan soliq va bojxona imtiyozlari bo‘yicha hujjatlar [37] O‘zbekistonda ham muvofiq rag‘batlantirish mexanizmlarini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot sanoat korxonalarida texnik tartibga solish tizimida sifat menejmenti tizimidan foydalanish darajasini baholash va uni takomillashtirish yo‘llarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda nazariy tahlil, statistik ko‘rsatkichlar, huquqiy hujjatlar va xalqaro tajribalarni solishtirish metodlaridan foydalanildi.

Nazariy asos sifatida ISO 9001:2015 standarti, umumiy sifat menejmenti (TQM) tamoyillari hamda Juran [2], Ishikawa [3], [4] va Xalilov [1] kabi mutaxassislarning yondashuvlari tahlil qilindi.

Statistik tahlilda 2020–2024 yillarga oid standartlar soni, xalqaro standartlarga moslashtirilgan hujjatlar va muvofiqlik baholash ko‘rsatkichlari asosida aniqlangan real holat Texnik jihatdan tartibga solish agentligi va Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi nazorat inspeksiyasi ma’lumotlari orqali o‘rganildi [14], [15], [28].

Solishtirma tahlil usuli orqali O‘zbekiston tajribasi Janubiy Koreya (KATS), Turkiya (TSE) va Rossiya (Rosstandart) tizimlari bilan qiyoslandi [36], bu esa milliy tizimning integratsiyaviy imkoniyatlarini baholashga xizmat qildi.

Bundan tashqari, PF-6240 [5], PQ-5133 [6], PQ-91 [8], O‘RQ-800 [10] va boshqa normativ hujjatlar asosida texnik siyosatning huquqiy poydevori chuqur tahlil qilindi. Natijalar grafiklar va jadvallar (1–2-jadval, 1–2-rasm) orqali tizimli yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston sanoatida sifat menejmenti va texnik tartibga solish tizimining amaliyotga joriy etilishi ko‘plab ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Bu tizimlar bir-birini to‘ldirib, mahsulot sifati, xavfsizligi va eksport salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutmoqda. Quyida ushbu tizimlarning amaldagi holati, rivojlanish tendensiyalari va ularni takomillashtirish imkoniyatlari asosli tahlil etiladi.

O‘zbekistonda texnik jihatdan tartibga solish sohasida huquqiy asoslar izchil takomillashtirildi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2021-yil 2-iyun PF-6240-son “Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni[5] asosida tashkil etilgan Texnik tartibga solish agentligi faoliyati PQ-5133 [6] va PQ-91 [8] qarorlari orqali kengaytirilib, standartlarni xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish ishlari boshlab yuborildi. Quyidagi 1-jadval orqali bu sohadagi yillik o‘zgarishlar ko‘rsatilgan:

1-jadval


Standartlar bo‘yicha tahliliy ko‘rsatkichlar (2020–2024)¹

Yil	Ishlab chiqilgan standartlar	Bekor qilingan standartlar	Xalqaro talablarga moslashtirilgan
2020	500	50	100
2021	750	80	200
2022	1020	120	400
2023	1300	160	700
2024	1700	183	1000

Jumladan, 2020-yilda 500 ta standart ishlab chiqilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu raqam 1700 taga yetgan. Bu esa tizimdagi institutsional faollik ortganini tasdiqlaydi.

¹ Muallif ishlanmasi

Xalqaro talablar asosida moslashtirilgan standartlar soni ham 5 yil ichida 10 baravarga oshgan: 100 tadan 1000 tagacha. Bu “xalqaro standartlarga integratsiya” jarayonining faollashganini bildiradi.




1-rasm. ISO 9001 joriy etilgan korxonalar soni hududlar kesimida ¹

ISO 9001:2015 sifat menejmenti tizimining hududlar kesimida joriy etilish ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra, eng yuqori natijalar Toshkent viloyatida (156 ta) va Toshkent shahrida (120 ta) qayd etilgan. Shuningdek, Namangan va Farg'ona viloyatlarida bu tizim 110 tadan korxonada tatbiq etilgan bo'lib, Qashqadaryo viloyatida esa 103 ta korxonada joriy etilgani bilan yuqori ko'rsatkichlar qatoridan joy olgan.

Boshqa hududlar ichida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Sirdaryo viloyati nisbatan past ko'rsatkichga ega bo'lib, har birida atigi 72 tadan korxonada ISO 9001 tizimi joriy etilgani kuzatilgan.

O'zbekistonning milliy standartlari qanchalik darajada xalqaro me'yorlarga mos kelishini aniqlash maqsadida diagrammasi (2-rasm) tuzildi. Tahlillar quyidagi nisbatlarni ko'rsatdi:

¹ Muallif ishlanmasi



2-rasm. Milliy standartlarning xalqaro talablarga uyg'unlik darajasi[28]

Bu raqamlar milliy standartlarning aksariyati hali ham to'liq xalqaro moslik darajasiga ega emasligini, ularning sezilarli qismini yangilash lozimligini ko'rsatadi. Aynan shu asosda 2025-yilgacha 1700 ta xalqaro standartni milliy hujjatlar bilan uyg'unlashtirish rejasini ishlab chiqilgan [23], [28].

2024-yilda mahalliy eksportbop mahsulotlarga taalluqli 1 739 ta xalqaro va Yevropa standartlari milliy standartlar sifatida qabul qilindi. Ushbu standartlar quyidagi sohalar bo'yicha taqsimlangan:

- 373 ta – to'qimachilik, charm-poyabzal sanoati
- 202 ta – elekt texnika
- 247 ta – qurilish
- 339 ta – oziq-ovqat
- 348 ta – kimyo sanoati
- 230 ta – boshqa sohalar

Natijada, milliy standartlarning xalqaro standartlar bilan uyg'unlashish darajasi 24,7 foizdan 30,6 foizgacha oshirildi.

Jahon savdo tashkiloti (JST) talablariga mosligi bo'yicha 2 668 ta standart (104%) qayta ko'rib chiqildi, ya'ni belgilangan reja ortig'icha bajarildi.[28]

Bu natijalar texnik nazoratning izchil amalga oshirilayotganini, biroq tizimda hali muammolar mavjudligini ko'rsatadi — xususan, ichki auditning yetarli darajada tashkil etilmagani [33], [37].

Texnik tartibga solish va sifat menejmenti sohasida muvaffaqiyatli xalqaro tajribalar tahlili O'zbekiston uchun muhim metodologik yo'nalishlar va tizimli islohotlar uchun yo'l xaritasini belgilab berishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, texnik reglamentlar va milliy standartlarning xalqaro me'yorlarga moslik darajasi muhim ko'rsatkich sifatida qaraladi.

Quyidagi solishtirma jadval xalqaro tashkilotlar va ilg'or davlatlar tajribasi bilan O'zbekiston holatini tahlil qilish imkonini beradi:

2-jadval.

Xalqaro tashkilotlar va ilg'or davlatlar tajribasi bilan O'zbekiston holatini solishtirma tahlili [28]

Davlat	Milliy standartlarning xalqaro talablariga moslik darajasi
Janubiy Koreya (KATS)	99% – xalqaro standartlarga to'liq integratsiya qilgan, ISO/IEC talablari asosida davlat siyosatini olib bormoqda.
Turkiya (TSE)	75% – G'arb va Yevrosiyo talablariga moslashtirilgan tizimga ega, ISO, EN, IEC va Yevroittifoq regulyatorlariga a'zo.
Rossiya (Rosstandart)	60% – GOST va ISO standartlarining uyg'unlashuvi davom etmoqda, lekin ayrim sohalarda mahalliy regulyatsiyalar ustun.
O'zbekiston	30,6% – Integratsiya endigina boshlangan. 2025-yilgacha 1700 ta xalqaro standartni moslashtirish rejalashtirilgan.

Janubiy Koreyada texnik jihatdan tartibga solish agentligi (KATS) yirik xususiy sektor bilan hamkorlikda ishlaydi. Bu model tadbirkorlik muhitiga xizmat qiluvchi davlat siyosati sifatida ko'riladi. ISO/IEC/EN talablari bo'yicha ishlab chiqarilgan har bir mahsulot, Koreya ichki bozorida muvofiqlikdan o'tmasa, eksportga chiqarilmaydi.

Turkiyada esa TSE (Turkish Standards Institute) yirik korxonalar uchun ISO 9001, ISO 14001 va boshqa sifat menejment tizimlarini hujjatlashtirish va konsalting xizmatlari bilan birga taqdim etadi. Bu esa TSEning roli faqat nazorat bilan cheklanmay, ko'mak beruvchi tashkilot sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Rossiyada Rosstandart GOST tizimini ISO bilan uyg'unlashtirishni davom ettirayotgan bo'lsa-da, ayrim sohalarda texnik jihatdan tartibga solish milliy sanoatni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan.

O'zbekistonda esa uyg'unlashganlik darajasi hozircha 30,6% atrofida bo'lib, bu integratsiya jarayonining ilk bosqichidir. Shunga qaramay, 2024–2026 yillarda xalqaro standartlar bilan uyg'unlashgan 3000 dan ortiq hujjatni ishlab chiqish rejalashtirilgan [28], [36]. Bku esa to'g'ri yo'nalish tanlanganini, ammo uni samarali boshqarish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Turkiya, Koreya va Rossiyada ISO 9001 tizimini joriy qilgan korxonalariga soliq imtiyozlari, kredit yengilliklari va eksport subvensiyalari taqdim etiladi. O'zbekistonda ham bu yondashuv asosida sifat tizimiga o'tgan korxonalarni rag'batlantirish mexanizmlari [37] ishlab chiqilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston sanoatida texnik tartibga solish va sifat menejmenti tizimlari o‘rtasida bosqichma-bosqich integratsiyalashuv yuz bermoqda. O‘tgan yillarda joriy etilgan islohotlar, ISO 9001:2015 kabi xalqaro sifat tizimlarining amaliyotga tatbiq etilishi, shuningdek, milliy standartlarning xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirilishi natijasida sanoat mahsulotlarining sifati va eksport salohiyati sezilarli darajada oshmoqda. Bu jarayon O‘zbekistonning xalqaro savdo maydonlarida raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda texnik siyosatni takomillashtirish borasida huquqiy va institutsional asoslar yaratilgan, xalqaro tajribalarni o‘rganishga asoslangan tahliliy yondashuvlar kengaygan. Shu bilan birga, texnik nazorat, ichki audit, kadrlar salohiyati va axborot raqamlashtiruvchi borasida hali hal etilishi lozim bo‘lgan bir qator dolzarb yo‘nalishlar mavjud. Ularning bartaraf etilishi texnik jihatdan tartibga solish va sifat menejmenti tizimlarining real sektordagi samaradorligini yanada oshiradi.

Birinchidan, ISO 9001 tizimini joriy qilgan korxonalarni iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish zarur. Bunday subyektlarga soliq va bojxona imtiyozlari berish, davlat xaridlari jarayonida ustuvorlik taqdim etish va eksportni qo‘llab-quvvatlash tizimini kengaytirish, ularning faoliyatini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, milliy standartlar bazasini xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish ishlari izchil davom ettirilishi kerak. 2025-yilgacha milliy hujjatlar tarkibini 1700 dan ortiq xalqaro standartlar bilan moslashtirish rejalashtirilgan bo‘lib, bu strategiya barcha sohalar bo‘yicha muvozanatli amalga oshirilmog‘i lozim.

Uchinchidan, sifat menejmentining barqaror ishlashi uchun ichki audit va monitoring tizimlarini institutsional asosda mustahkamlash lozim. Malakali auditorlarni tayyorlash, korxonalarda sifatni nazorat qiluvchi ichki tizimlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash va monitoring mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha alohida dasturlar ishlab chiqilishi zarur.

To‘rtinchidan, texnik tartibga solish va sifat menejmenti sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta‘lim tizimi zarur. Oliy ta‘lim muassasalari, texnikumlar, qisqa muddatli modul kurslar va xalqaro hamkorlik dasturlari orqali amaliy bilimlarga ega kadrlar zaxirasini shakllantirish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Beshinchidan, Janubiy Koreya (KATS), Turkiya (TSE) va Rossiya (Rosstandart) kabi ilg‘or mamlakatlar tajribasiga tayangan holda texnik hamkorlikni kuchaytirish, qo‘shma laboratoriyalar tashkil etish va konsalting xizmatlarini rivojlantirish tavsiya etiladi. Bu orqali milliy tizimning xalqaro standartlarga yaqinlashuvi ta‘minlanadi.

Oltinchidan, real vaqtda ishlovchi raqamli monitoring platformalarini yaratish texnik reglamentlar va muvofiqlik baholash holatini doimiy tahlil qilish imkonini beradi. Bu nazorat jarayonlarining samaradorligini oshirishda muhim vositaga aylanadi.

Yettinchidan, texnik tartibga solish va sifat menejmentiga oid barcha ma'lumotlarni birlashtiruvchi, interaktiv va ochiq onlayn portalni ishga tushirish lozim. Bunday platforma orqali korxonalar, nazorat organlari va jamoatchilik o'rtasida shaffoflik va samarali axborot almashinuvi ta'minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, texnik tartibga solish va sifat menejmenti tizimining birgalikda takomillashuvi O'zbekiston sanoatini yangi raqobatbardosh bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Yuqorida bayon etilgan takliflar bu yo'lda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi va sanoatning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi muhim yo'l xaritasini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xalilov, S. (2021). Sifat menejmenti asoslari. Toshkent: TSUE elektron kutubxonasi.
2. Juran, J. M. (2021). Juran's Quality Handbook (7th ed.). New York: McGraw-Hill Education.
3. Ishikawa, K. (1988). Yaponiyada sifat nazorati usullari. Moskva: Ekonomika.
4. Ishikawa, K. (n.d.). Umumiy sifat menejmenti (TQM) nazariyasi bo'yicha tahliliy qo'llanma.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2021-yil 2-iyun PF-6240-son "Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-5443205>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyun PQ-5133-son "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-5443069>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabr PQ-4059-son "Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror <https://lex.uz/docs/-4102205>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-fevral PQ-91-son "O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/uz/docs/-6821843>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Prezidentining 2024-yil . 28-fevral PQ-91 "O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining faoliyatini tashkil etish

- chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi Qarori ilovasi: Texnik reglamentlarni yangilash dasturi.
<https://lex.uz/uz/docs/-6821843>
10. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-noyabr. O‘RQ-800-son “Standartlashtirish to‘g‘risida’gi Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-6270526>
11. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 27-fevral O‘RQ-819-son “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida’gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-6392312>
12. O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi hamda uning tizim tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risida MA’LUMOT https://new.standart.uz/upload/file/analitika/analit_uzst_1kv_2024.pdf
13. Erasmus+ (n.d.). Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish kursi. <https://erasmus-plus.ec.europa.eu>
14. Texnik nazorat inspeksiyasi. (2024). 1-chorakdagi faoliyat statistik tahlili. https://new.standart.uz/upload/file/analitika/analit_uzst_1kv_2024.pdf
15. QMMB. (2024). Mahsulot sifatini nazorat qilish va muvofiqlik baholash hisobotlari https://new.standart.uz/upload/file/otchet/davlat_dasturi_izhrosi_1kv_2022.pdf
16. O‘zstandart. (2022). Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik ma’lumotnomasi. <https://standart.uz>
17. Texnik jihatdan tartibga solish agentligi. (2024). Standartlashtirish bo‘yicha ishlar.
18. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. (2021). Standartlashtirish va sertifikatlashtirish asoslari: O‘quv-uslubiy majmua.
19. O‘zbekiston Respublikasi. (2022). Texnik jihatdan tartibga solish siyosati: Nazariy asoslari.
20. Ekspert kengashi. (2023). Texnik reglamentlar ishlab chiqish va ekspertiza tartibi. (Ichki reglament) . <https://standart.uz>
21. Texnik tartibga solish agentligi. (2024). Agentlik faoliyati to‘g‘risida qaror. (Ichki hujjat) . <https://standart.uz>
22. ISO. (2015). ISO/TS 9002:2015 – Guidelines for the application of ISO 9001:2015. Geneva: International Organization for Standardization. <https://www.iso.org/standard/65552.html>
23. Texnik tartibga solish agentligi. (2023). Texnik reglamentlarni qayta ko‘rib chiqish rejasi. (Ichki hujjat) . <https://standart.uz>
24. O‘zbekiston Respublikasi. (n.d.). Texnik jihatdan tartibga solish tizimini shakllantirish konsepsiyasi. https://www.standart.uz/upload/file/konceptsiya_truzl.pdf
25. Texnik tartibga solish agentligi. (n.d.). Davlatlararo va xalqaro hamkorlik hujjatlari (idoralararo) . <https://standart.uz>

26. Hukumatlararo kelishuvlar. (n.d.). Texnik hamkorlik hujjatlari. (Idoralararo memorandumlar to‘plami) . <https://standart.uz>
27. Texnik tartibga solish agentligi. (n.d.). Normativ hujjatlar to‘plami. (Ichki fond) . <https://standart.uz>
28. Texnik tartibga solish agentligi. (2022–2026). Strategik rivojlanish dasturi. https://new.standart.uz/upload/file/analitika/analit_uzst_12_2024kl.pdf
29. ISO. (2015). ISO 9001:2015 – Quality management systems – Requirements. Geneva: International Organization for Standardization. <https://www.iso.org/standard/62085.html>
30. ISO. (2016). ISO 9002:2016 – Guidelines on ISO 9001 implementation. <https://www.iso.org/standard/65552.html>
31. TSUE. (2021). Texnik jihatdan tartibga solish fanidan ma’ruza matnlari. Toshkent: TSUE.
32. O‘zbekiston texnik siyosati markazi. (n.d.). Milliy sifat tizimi va yondashuvlar. (Tahliliy material)
33. Texnik tartibga solish bo‘yicha islohotlar tahlili. (n.d.). Standartlashtirishdagi o‘zgarishlar. (Monitoring hisobotlari) . <https://standart.uz>
34. O‘zbekiston texnik agentligi. (n.d.). Xalqaro standartlarga moslashuv hisobotlari. (Ichki tahlil)
35. JST. (n.d.). Jahon savdo tashkiloti texnik reglament talablari sharhi. <https://www.wto.org>
36. TSE, KATS, Rosstandart. (n.d.). Xalqaro texnik siyosat va sifat tizimi tajribalari. (Taqqoslovchi hisobot)
37. O‘zbekiston Respublikasi Sifat tizimini joriy qilgan korxonalar uchun soliq va bojxona imtiyozlari. . <https://standart.uz>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**